

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI PROFESSOR- O‘QITUVCHILARINING 2022-YILDA AMALGA OSHIRGAN ILMIY- TADQIQOT ISHLARI HISOBOTI

Kafedra O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti Futbol fakultetining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi. Kafedra tarkibi 9 ta shtat birligidagi pedagog xodimlardan tashkil topgan.

2022-yili davomida kafedrada 2020-2024 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari istiqbolli rejasi asosida bir qator ishlar amalga oshirildi:

Kafedra ilmiy salohiyatini oshirish uchun PhD va DSc dissertatsiya himoyalari sonini ko‘paytirishga harakat qilinmoqda. Jumladan, 2022-yilning dekabr oyida kafedra dotsenti N.G‘afforov 10.00.11 – Til nazariyasi, amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi bo‘yicha “Sport terminlarining lingvokulturologik va leksikografik tadqiqi” mavzusida tayyorlangan dissertatsiya muvaffaqiyatli himoya qilindi va OAK tomonidan Filologiya fanlari doktori (Dsc) ilmiy darajasi berildi

Kafedraning ilmiy salohiyat darajasini oshirish, yosh ilmiy izlanuvchilarning ilmiy faoliyat olib borishlari uchun qulay sharoitlar yaratish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, ilmiy-metodik ta‘minotni takomillashtirish, innovatsiya va ilm-fanni rivojlantirish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitet bilan hamkorlikda kafedraning istiqbolli yosh ilmiy tadqiqotchilariga ilmiy rahbar sifatida jalb qilindi. Jumladan, o‘qituvchi Ismoilov Jahongir, Ilmiy rahbar –prof. Laylo Raupovaga, o‘qituvchilar: Sultonova Zarifa, N.Mustafoyevalar (Ilmiy rahbar f.f.doktori N.G‘afforov) O‘zbek tili va adabiyoti universitetiga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 3 yil muddatga mustaqil izlanuvchilik (PhD) tadqiqotchisi sifatida biriktirildi.

Kafedrada 6 ta magistrga ilmiy rahbar N.G‘afforov, I.Boltayevalar biriktirilgan bo‘lib, 3 ta magistr sport jurnalistikasi, 3 tasi Sport faoliyati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirilib, magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlashmoqda.

Kafedrada professor-o‘qituvchilar va magistratura talabalariga xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasidan foydalanish ishlarini rivojlantirishga ham harakat qilinmoqda.

2022-yilning 4-iyun kuni kafedrada olib borilayotgan fanlar maqsad - vazifasidan kelib chiqib, o‘zbek tilining dolzarb muammolariga bag‘ishlangan “O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitishning ilmiy - metodik asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumanI tashkil etildi. Anjuman materiallari to‘plam shaklida chop etildi.Mazkur konferensiyada respublikamizning yirik olimlari ishtirok etib, materiallarda o‘zbek tilini sohalarga yo‘naltirib o‘qitishda yangicha yondashuvlar, til va yozuv munosabatlari, sohalarda, xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid termin, atamalarning qo‘llanishi, davlat tilida ish yuritish masalalari, ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, ta’lim-tarbiya, urf-odat va an’analar, shuningdek, o‘zbek tilining sohalarda qo‘llashning ilmiy-nazariy muammolari yetakchi olim, mutaxassislar tomonidan nazariy asosda tahlil qilib berildi.

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi tomonidan 2023-yilning 6-7 yanvar kunlari “Davlat tilida ish yuritish va uning ilmiy metodologiyasi” mavzusida respublika miqyosida o‘quv-seminar tashkil etildi. O‘quv-seminarning maqsadidan kelib chiqib respublikamizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan sport tashkilotlari xodimlariga davlat tilida ish yuritishning asoslari, adabiy til me’yorlari, hujjatlar bilan ishlash qoidalari, hujjatlarni tayyorlash jarayoniga qo‘yiladigan talablar, tashkiliy va ma’lumot-axborot hujjatlarning o‘ziga xosligi, ish yuritish tartibi bo‘yicha zaruriy ma’lumotlar berildi, shuningdek, o‘zbek tiliga asoslangan lotin alifbosi asosida ish yuritish hujjatlarini tashkil etish yuzasidan amaliy tajriba almashishdilar.

Kafedrada professor-o‘qituvchilarni respublika va xorijiy ilmiy jurnalarning tahririyatiga a’zo qilish bo‘yichaham amaliy ishlarni tashkil qilindi. Jumladan, N.G’afforov va I.Boltayevalar reytingi yuqori bo‘lgan respublika va xorijiy ilmiy jurnalarning tahririyatiga a’zodirlar.

Universitet Axborot resurslari markazi fondini kafedrada mavjud fanlarni yangi o'quv adabiyotlari bilan to'ldirish maqsadida kafedra o'qituvchilari tomonidan Axborot resurslari markazi fondiga kerakli bo'lgan adabiyotlar elektron nusxada taqdim etildi.

Shuningdek, dotsent I.Boltayeva tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fanidan O'quv-uslubiy majmuasi Universitet elektron ma'lumotlar bazasiga joylandi.

Kafedrada darslik va o'quv qo'llanmalar, ilmiy, uslubiy adabiyotlarni nashr qilish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash uchun zamon talablariga javob beradigan o'quv adabiyotlarini bosqichma-bosqich nashrga tayyorlash va chop etishga e'tibor qaratilib, kafedra o'quv rejasida belgilangan fanlar bo'yicha 2022 - yilda OO'MTV tomonidan 6 ta ilmiy manbaga Nashr ruxsatnomasi olindi va 1ta darslik, 3 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya tnashrdan chiqarildi.

Kafedra professor-o'qituvchilarining chet tili bo'yicha savodxonligini oshirib maqsadida o'qituvchilar mustaqil kurslarga jalb etilmoqda. Buning natijasi o'laroq, kafedra dotsenti I.Boltayeva – ingliz tilidan, o'qituvchi Z.Sultonova – turk tilidan Sertifikatlarga ega bo'lishdi.

2022-yil davomida kafedra professor-o'qituvchilari respublika va xorijiy nufuzli oliy ta'lim muassasalarida tashkil qilingan konferensiyalarda faol ishtirok qilishdi. Shuningdek, 5 ta professor-o'qituvchi Xalqaro Kongressda o'z maqolalari bilan qatnashishdi (Ro'yxat ilova etiladi)

Hozirgi kunda kefedrada Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan ustuvor ilmiy yo'nalishlar bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish rejalashtirilayotgan bo'lib, 2ta yo'nalishda Loyiha ishlarining bajarilishi bo'yicha takliflar Innovasion rivojlanish vazirligiga taqdim etildi. Loyihalarni bajarish ishlarini rivojlantirish maqsadida yetuk professor-o'qituvchilardan iborat ilmiy guruhlarini tashkil qilish rejalashtirilgan.

Xullas, 2022-yilda kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan jami 60 dan ortiq ilmiy ishlar nashr etilgan bo'lib, yiil bo'yicha samarali va ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi.

Kafedra ilmiy ishlar bo'yicha mas'ul:

I.BOLTAYEVA